



Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligining 2024-yil "10"
dagi 154 - sonli
buyrug'iga ilova

**O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
huzuridagi Oliy va professional ta'lim muassasalari moddiy-texnik bazasini
mustahkamlash markazining**

USTAVI

1-bob. Umumiy qoidalar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'muriy islohotlar doirasida oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida" 2023-yil 3-iyuldagi PQ-200-son qaroriga muvofiq Oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi O'quv ustaxonalari, texnik reglamentlar va metrologik nazorat xizmati Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy va professional ta'lim muassasalari moddiy-texnik bazasini mustahkamlash markazi deb qayta nomlangan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy va professional ta'lim muassasalari moddiy-texnik bazasini mustahkamlash markazi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2024-yil 18-apreldagi 216/6-son qaroriga asosan Oliy va professional ta'lim muassasalari moddiy-texnik bazasini mustahkamlash markazi faoliyati yanada takomillashtirilgan.

2. Oliy va professional ta'lim muassasalari moddiy-texnik bazasini mustahkamlash markazi (keyingi o'rinlarda - Markaz) tashkiliy-huquqiy shakliga ko'ra davlat muassasasi hisoblanadi.

3. Mazkur Ustav O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi (keyingi o'rinlarda - Vazirlik) huzuridagi Markazning maqomi, asosiy vazifalari va funksiyalarini, huquqlari va javobgarligini, faoliyatini tashkil etish hamda hisobot berish tartibini, shuningdek, uning rahbarlarining funksional vazifalari va javobgarligini belgilaydi.

4. Markaz ish faoliyatini tashkil etish, boshqarish va nazorat qilish oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari tomonidan olib boriladi.

5. Markazning shtat jadvali belgilangan tartibda tasdiqlanadi va ro'yxatdan o'tkaziladi.

6. Markaz o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2022-yil 21-dekabrda PF-269-son va "Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari

faoliyatini samarali yo'lga qo'yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida" 2023-yil 25-yanvardagi PF-14-son Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'muriy islohotlar doirasida oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida" 2023-yil 3-iyuldagi PQ-200-son qarori va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy va professional ta'lim muassasalari moddiy-texnik bazasini mustahkamlash markazi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2024-yil 18-apreldagi 216/6-son qaroriga muvofiq amalga oshiradi.

7. Markaz o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlariga, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining buyruqlariga, shuningdek, ushbu Ustavga va boshqa qonunchilik hujjatlariga amal qiladi.

8. Markaz Vazirlikning tashkiliy tuzilmasiga kiradigan yuridik tashkilot hisoblanadi, O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan va o'z nomi davlat tilida yozilgan muhrga hamda blankalarga, mustaqil balansga, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining G'aznachiligida shaxsiy g'azna hisob varaqlariga, bank hisob raqamlariga, shu jumladan xorijiy valyutadagi bank hisob raqamlariga ega bo'ladi.

9. Markazning rasmiy nomi:

a) davlat tilida:

to'liq nomi – O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy va professional ta'lim muassasalari moddiy-texnik bazasini mustahkamlash markazi, qisqartmasi – Markaz;

b) rus tilida:

to'liq nomi – центр укрепления материально-технической базы высших и профессиональных учебных заведений при Министерстве высшего образования, науки и инновации Республики Узбекистан, qisqartmasi – центр;

v) ingliz tilida:

Full name – Center for Strengthening the Material-Technical Base of Higher and Professional Education Institutions under the Ministry of Higher and Secondary Specialized Education of the Republic of Uzbekistan – Center, shortened form – Center.

Markazning yuridik manzili: indeks – 100095, Toshkent shahar, Olmazor tumani, 2-Chimboy ko'chasi, 96/1-uy.

2-bob. Oliy va professional ta'lim muassasalari moddiy-texnik bazasini mustahkamlash markazining tuzilmasi

10. Markazning tuzilmasiga quyidagilar kiradi:

Ta'lim muassasalari infratuzilma ob'ektlaridan foydalanish monitoringi boshqarmasi;

Oliy ta'lim muassasalari moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo'limi;

Professional ta'lim muassasalari moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo'limi;

Bosh yuriskonsult;

Bosh hisobchi;

Inson resurslarini rivojlantirish, boshqarish va ijro nazorati bo'yicha bosh mutaxassis.

3-bob. Oliy va professional ta'lim muassasalari moddiy-texnik bazasini mustahkamlash markazining vazifalari va funksiyalari

11. Quyidagilar Markazning asosiy vazifalari hisoblanadi:

idoraviy mansubligidan qat'iy nazar, barcha oliy va professional ta'lim muassasalarida (keyingi o'rinlarda – ta'lim muassasalari) jihoz, asbob-uskuna, transport vositalari, mebel va boshqa moddiy qiymatliklar hamda sarflanadigan xomashyo va materiallar bilan ta'minlanish holatini monitoring qilish hamda ulardan ta'lim va ilmiy-tadqiqot jarayonida samarali foydalanilishini nazorat qilish;

ta'lim muassasalarining jihoz, asbob-uskuna, transport vositalari, mebel, xomashyo va materiallar, butlovchi qismlar hamda boshqa moddiy qiymatliklarga bo'lgan ehtiyojlarini o'rganish, ta'lim muassasalari moddiy-texnik bazasini rivojlantirish bo'yicha istiqboldagi dasturlarni ishlab chiqish;

ta'lim muassasalarida bino va inshootlarni qurish, rekonstruksiya qilish hamda mukammal ta'mirlash ishlarini muvofiqlashtirish, ularning monitoringini yuritish;

ta'lim muassasalarida infratuzilma ob'ektlarining ekspluatatsiya qilinishi monitoringini yuritish;

ta'lim muassasalarida yashillik darajasini oshirish va ko'kalamzorlashtirish bo'yicha tadbirlarni tashkil etish, "Yashil makon" umummilliy loyihasini samarali amalga oshirish ishlarini muvofiqlashtirib borish;

ta'lim muassasalaridagi mavjud bino va inshootlardan samarali foydalanish hamda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejovchi texnologiyalarni keng joriy etish va ulardan samarali foydalanish holati monitoringini yuritish.

12. Markaz o'ziga yuklangan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

1) idoraviy mansubligidan qat'iy nazar, barcha oliy va professional ta'lim muassasalarida (keyingi o'rinlarda – ta'lim muassasalari) jihoz, asbob-uskuna, transport vositalari, mebel va boshqa moddiy qiymatliklar hamda sarflanadigan xomashyo va materiallar bilan ta'minlanish holatini monitoring qilish hamda ulardan ta'lim va ilmiy-tadqiqot jarayonida samarali foydalanilishini nazorat qilish sohasida:

ta'lim muassasalaridagi mavjud jihoz, asbob-uskuna, transport vositalari, mebel va boshqa moddiy qiymatliklar hamda sarflanadigan xomashyo va materiallar bilan ta'minlanish holatini monitoring qiladi;

jihozlar va boshqa moddiy qiymatliklardan ta'lim va ilmiy-tadqiqot jarayonida samarali foydalanilishini nazoratini olib boradi;

ta'lim muassasalarida foydalanilmayotgan jihoz, asbob-uskuna, transport vositalari va boshqa moddiy qiymatliklarni ehtiyojmand ta'lim muassasalariga qayta taqsimlash bo'yicha takliflar tayyorlaydi;

ta'lim muassasalarida mavjud texnika va jihozlardan o'quv jarayonida foydalanish holati bo'yicha turkumlangan ma'lumotlar bazasini yaratishni va muntazam ravishda yangilab borilishini tashkil qiladi;

belgilangan muddatlarda mini sex, ustaxona, laboratoriya va boshqa joylarda o'quv jarayonida qo'llaniladigan nazorat-o'lchash vositalarini qiyoslashdan o'tkazishni tashkil etadi;

ta'lim muassasalari faoliyatini tegishli masalalar bo'yicha o'rganishda ishtirok etadi, takliflar tayyorlaydi.

ta'lim muassasalaridagi tegishli xizmat muddatini o'tab bo'lgan jihoz, asbob-uskuna, transport vositalari va boshqa moddiy qiymatliklarning texnik holatini o'rganadi hamda ulardan o'quv jarayonida foydalanish to'g'risida shartnoma asosida tegishli xulosalar beradi.

2) ta'lim muassasalarining jihoz, asbob-uskuna, transport vositalari, mebel, xomashyo va materiallar, butlovchi qismlar hamda boshqa moddiy qiymatliklarga bo'lgan ehtiyojlarini o'rganish, ta'lim muassasalari moddiy-texnik bazasini rivojlantirish bo'yicha istiqboldagi dasturlarni ishlab chiqish sohasida:

ta'lim muassasalarining jihoz, asbob-uskuna, transport vositalari, mebel, xomashyo va materiallar, butlovchi qismlar hamda boshqa moddiy qiymatliklar bilan ta'minlanish darajasi va moddiy-texnika bazasiga bo'lgan ehtiyojlari monitoringini olib boradi;

ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish bo'yicha istiqboldagi dasturlarni shakllantiradi;

xorijiy davlatlar investitsiya loyihalarini amalga oshirishda ishtirok etadi.

3) ta'lim muassasalarida bino va inshootlarni qurish, rekonstruksiya qilish hamda mukammal ta'mirlash ishlarini muvofiqlashtirish, ularning monitoringini yuritish sohasida:

ta'lim muassasalarida bino-inshootlarning qurilishi, rekonstruksiya qilinishi hamda mukammal ta'mirlanishi ishlarini amalga oshirish bo'yicha investitsiya dasturlarini shakllantirishda ishtirok etadi;

ta'lim muassasalarida bino-inshootlarining qurilishi, rekonstruksiya qilinishi hamda mukammal ta'mirlash ishlarini muvofiqlashtirish, ularning monitoringini yuritish;

ta'lim muassasalarida bino-inshootlarning qurilishi, rekonstruksiya qilinishi hamda mukammal ta'mirlanishi bo'yicha ob'yektlarda olib borilayotgan ishlar holatini tahliliy o'rganib boradi.

4) ta'lim muassasalarida infratuzilma ob'yektlarining ekspluatatsiya qilinishi monitoringini yuritish sohasida:

ta'lim muassasalarining bino-inshootlari, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarining holati bo'yicha ma'lumotlar bazasini yaratishni va muntazam ravishda yangilab borilishini tashkil qiladi;

ta'lim muassasalarining bino-inshootlari hamda muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini yangi o'quv yili va kuz-qish mavsumiga tayyorlash, obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish bo'yicha belgilangan tadbirlarni sifatli amalga oshirilishini tashkil etadi va monitoringini olib boradi;

ta'lim muassasalarini kuz-qish mavsumida mo'tadil ishlashini monitoringini olib boradi;

ta'lim muassasalarining isitish qozonlari va isitish pechlari, elektr va issiqlik energiyasi, tabiiy gaz, ko'mir yoqilg'isi, suv va suvoqavalar hamda neft mahsulotlaridan samarali foydalanish bo'yicha takliflar tayyorlaydi;

ta'lim muassasalaridagi mavjud bino-inshootlardan samarali foydalanish bo'yicha takliflar tayyorlaydi;

5) ta'lim muassasalarida yashillik darajasini oshirish va ko'kalamzorlashtirish bo'yicha tadbirlarni tashkil etish, "Yashil makon" umummilliy loyihasini samarali amalga oshirish ishlarini muvofiqlashtirib borish sohasida:

ta'lim muassasalarida yashillik darajasini oshirish va ko'kalamzorlashtirish uchun daraxt va buta ko'chatlarini ekish bo'yicha tadbirlarni tashkillashtirib boradi;

ta'lim muassasalaridagi yashil hududlar va ularda ekilgan daraxt va butalarning parvarishlanishini monitoringini olib boradi;

ta'lim muassasalari hududidagi daraxtlarni raqamlashtirish orqali ularning pasportini yaratish bo'yicha tadbirlarni muvofiqlashtirib boradi;

ta'lim muassasalaridagi yashil hududlar va ularda ekilgan daraxt va butalar bo'yicha ma'lumotlar bazasini yaratishni va muntazam ravishda yangilab borilishini tashkil qiladi;

ta'lim muassasalarida "Yashil makon" umummilliy loyihasini samarali amalga oshirish ishlarini muvofiqlashtirib boradi.

6) ta'lim muassasalaridagi mavjud bino va inshootlardan samarali foydalanish hamda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejovchi texnologiyalarni keng joriy etish va ulardan samarali foydalanish holati monitoringini yuritish sohasida:

ta'lim muassasalaridagi mavjud bino va inshootlardan samarali foydalanilishini monitoringini olib boradi;

ta'lim muassasalaridagi isitish qozonlari va isitish pechlarining holatini monitoring qilib boradi va bu borada tegishli ma'lumotlar bazasini yaratishni va muntazam ravishda yangilab borilishini tashkil qiladi;

ta'lim muassasalari va tashkilotlarda elektr va issiqlik energiyasi, tabiiy gaz, suv va suvoqavalar hamda neft mahsulotlariga bo'lgan yillik talab miqdori, shuningdek, ularning sarfi yuzasidan monitoring olib boradi;

ta'lim muassasalaridagi bino va inshootlarda quyosh panellari o'rnatish hamda kichik fotoelektr stansiyalarini barpo etish bo'yicha rejalarni ishlab chiqilishini muvofiqlashtirib boradi;

ta'lim muassasalarining bino va inshootlarida kichik quvvatli qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini o'rnatish va ekspluatatsiya qilish bo'yicha hamda energiya samaradorligini oshirish bo'yicha loyihalarni amalga oshirilishini monitoringini olib boradi;

qayta tiklanuvchi energiya manbalari asosida energiya ta'minotini tashkil etish uchun asbob-uskunalar, texnika, xomashyo, butlovchi va ularning ehtiyot qismlariga bo'lgan ehtiyojlari monitoringini olib boradi;

ta'lim muassasalarida qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejovchi texnologiyalarni keng joriy etilishi bo'yicha ma'lumotlar bazasini yaratishni va muntazam ravishda yangilab borilishini tashkil qiladi.

Markaz o'zining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish hamda mutaxassis xodimlarini ijtimoiy himoyalash va ularga qo'shimcha haq belgilash uchun Vazirlik

bilan kelishilgan holda, qonunchilikda belgilangan tartibda quyidagilar bo'yicha ta'lim muassasalariga shartnoma asosida xizmatlar ko'rsatadi:

jihozlar, asbob-uskuna va texnikalar hamda xomashyo va materiallardan o'quv-amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishda samarali foydalanish bo'yicha uslubiy qo'llanma hamda tavsiyalar ishlab chiqadi va joriy etadi;

ta'lim muassasalariga tegishli xizmat muddatini o'tab bo'lgan jihoz, asbob-uskuna va texnikalarning texnik holatini o'rganadi va ulardan ta'lim jarayonida foydalanish to'g'risida tegishli xulosalar beradi.

yuridik va jismoniy shaxslarga amaldagi qonunchilikka zid bo'lmagan boshqa xizmatlar ko'rsatadi.

4-bob. Oliy va professional ta'lim muassasalari moddiy-texnik bazasini mustahkamlash markazining huquqlari hamda javobgarligi

13. Markaz o'ziga yuklangan vazifalar va funksiyalarni amalga oshirish uchun quyidagi huquqlarga ega:

normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini, shuningdek, Markazga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan boshqa hujjatlarni belgilangan tartibda Vazirlikka kiritish;

Markaz vakolatiga kiradigan masalalarni hal etish uchun davlat va xo'jalik boshqaruvi organlaridan zarur axborotni belgilangan tartibda so'rash va olish;

ta'lim muassasalaridan tegishli ma'lumotlarni hamda ta'lim tizimini rivojlantirish va takomillashtirishning prognoz ko'rsatkichlarini olish;

o'z vakolatiga kiradigan masalalar bo'yicha konferensiyalar, seminarlar, treninglar, tanlovlar va ko'rgazmalar o'tkazish;

Markaz qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

14. Markaz:

o'ziga yuklangan vazifalar va funksiyalarning o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlash;

o'zining faoliyati bilan bog'liq bo'lgan prognoz ko'rsatkichlarga erishishni ta'minlash;

Vazirlikka kiritiladigan hujjatlar loyihalari va takliflar sifati, pirovard natijalari va oqibatlari uchun javob beradi.

**5-bob. Oliy va professional ta'lim muassasalari moddiy-texnik bazasini
mustahkamlash markazi rahbarlarining
asosiy funksional vazifalari**

15. Quyidagilar Markaz direktorining asosiy funksional vazifalari hisoblanadi:

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari talablariga, shuningdek, boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga rioya etish;

Markazning faoliyatiga umumiy rahbarlik qilish, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qaror va farmoyishlari hamda boshqa qonunchilik hujjatlarida Markazga belgilangan vazifalarning bajarilishini nazorat qilish;

Markazning faoliyati bilan bog'liq prognoz ko'rsatkichlariga erishishni ta'minlash bo'yicha amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqish va tasdiqlash;

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hay'ati va Vazirlikning Markaz faoliyatiga tegishli buyruqlari va topshiriqlarini o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlash;

Markazning direktor o'rinbosarini Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bilan kelishilgan holda, boshqarma boshlig'i, bo'lim boshliqlari, bosh yuriskonsult, bosh hisobchi, bosh va yetakchi mutaxassislari hamda yordamchi xodimlarni qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda lavozimga tayinlash va lavozimdan ozod etish;

Markazning xodimlari vakolatlarini belgilash va vazifalarni taqsimlash;

Markazga kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish, ularning samarali faoliyati uchun zarur shart-sharoitlar yaratish va kasbiy malakasini oshirish chora-tadbirlarini ko'rish, kadrlar zaxirasini shakllantirish;

"Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni talablariga muvofiq korrupsiya va boshqa huquqbuzarliklarning oldini olish choralari ko'rish, shuningdek, ularning sodir etilishini oldini olish;

Markazning ish faoliyatiga oid buyruqlar chiqarish va ko'rsatmalar berish, shuningdek, ularning ijrosini belgilangan tartibda nazorat qilish;

Markazga tegishli masalalar bo'yicha davlat idoralari va boshqa tashkilotlar bilan ish olib borish;

oliy va professional ta'lim muassasalarining bino va inshootlarining qurilishi, rekonstruksiya qilinishi hamda mukammal ta'mirlanishi, jihoz, asbob-uskuna, transport vositalari, mebel va boshqa moddiy qiymatliklar hamda xomashyo va materiallar bilan ta'minlanishi holatini monitoring qilish hamda ulardan ta'lim va ilmiy-tadqiqot jarayonida samarali foydalanilishini nazorat qilishni tashkil etish;

ta'lim muassasalarining bino va inshootlarining qurilishi, rekonstruksiya qilinishi hamda mukammal ta'mirlanishi, jihoz, asbob-uskuna, transport vositalari, mebel va boshqa moddiy qiymatliklar hamda xomashyo va materiallar bilan ta'minlanishi hamda ulardan ta'lim va ilmiy-tadqiqot jarayonida samarali foydalanilishi buyicha takliflar tayyorlanishini ta'minlash va vazirlikka kiritish;

ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo'yicha istiqboldagi dasturlarni ishlab chiqishda va xorijiy davlatlar investitsiya loyihalarini amalga oshirishda Markaz xodimlari ishtirokini ta'minlash;

Markaz faoliyatida ijro intizomini mustahkamlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni ko'rish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Ijro intizomini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida" 1999-yil 12-yanvardagi 12-son qaroriga muvofiq xodimlarning shaxsiy mas'uliyatini oshirish;

Markazning yarim yillik va yillik ish rejalarini vazirlikda tasdiqlatish hamda ularning bajarilishi ustidan nazoratni olib borish;

direktor o'rinbosari, boshqarma boshlig'i, bo'lim boshliqlari, bosh yuriskonsult, bosh hisobchi, bosh va yetakchi mutaxassislar hamda boshqa xodimlar faoliyatining samaradorligi va natijadorligini muntazam tanqidiy tahlil qilish, davriy ravishda ularning shaxsiy hisobotlarini eshitish;

direktor o'rinbosari, boshqarma boshlig'i, bo'lim boshliqlari, bosh yuriskonsult, bosh hisobchi, bosh va yetakchi mutaxassislar hamda boshqa xodimlarni rag'batlantirish va intizomiy javobgarlikka tortish masalalarini hal qilish, shu jumladan, ularni egallab turgan lavozimlarida qolish-qolmasligini maqsadga muvofiqligiga doir masalalarni ko'rib chiqish;

Markaz xodimlari tomonidan Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-oktabrdagi 595-son qarori bilan tasdiqlangan Davlat fuqarolik xizmatchilari odob-axloqining namunaviy qoidalari asosida tasdiqlangan Vazirlik xodimlarining odob-axloq qoidalari talablariga rioya etilishini ta'minlash;

jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqishga doir ishlarni samarali tashkil etish, "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida belgilangan muddatlarda jismoniy va yuridik shaxslarni qabul qilish;

jismoniy va yuridik shaxslarning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Virtual qabulxonasidan tushgan tegishli murojaatlarini o'z vaqtida va to'liq ko'rib chiqilishini ta'minlash;

davlat siriga kiritilgan ma'lumotlar va maxfiy axborot bilan ishlashda qonunchilik hujjatlari talablariga rioya qilish.

16. Quyidagilar markaz direktori o'rinbosarining asosiy funksional vazifalari hisoblanadi:

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari talablariga, shuningdek, boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga rioya etish;

boshqarma va bo'limlar faoliyatini muvofiqlashtirish, ularga yuklangan vazifalar va funksiyalar bajarilishini tashkil etish;

Vazirlik hay'ati qarorlari, vazir va markaz direktori buyruqlari hamda topshiriqlarini o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlash;

Markazning yarim yillik va yillik ish rejalarini ishlab chiqish, hisobotlar tayyorlash va markaz direktoriga taqdim etish;

boshqarma va bo'limlarning yarim yillik va yillik ish rejaları ishlab chiqilishini ta'minlash, ularni tasdiqlash uchun rahbarga kiritish, ularda ko'rsatilgan vazifalar va tadbirlarni o'z vaqtida va sifatli bajarilishini nazorat qilish;

boshqarma va bo'limlarda kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yishda Markaz direktoriga takliflar taqdim etish, professional, o'z ishini bilishi, amaliy tajribaga, yuksak darajada ishlash xususiyatlariga va ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega ekanligi kafolatini ta'minlash, ularning kasb malakasini oshirish choralarini ko'rish;

normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini boshqarma va bo'limlar tomonidan sifatli ishlab chiqilishini tashkil etish, tayyorlangan hujjatlar loyihalarini keyinchalik markaz direktori tomonidan ko'rib chiqish hamda imzolash (viza qo'yish) uchun kiritish;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi, Vazirlar Mahkamasi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi topshiriqlariga asosan o'rganishlarda ishtirok etish ma'lumotnoma va axborotlar umumlashtirish va takliflar ishlab chiqish;

ta'lim muassasalarining jihoz, asbob-uskuna, transport vositalari, mebel, xomashyo, butlovchi qismlar va boshqa moddiy qiymatliklar bilan ta'minlanish holatini monitoringini olib borish hamda ulardan ta'lim va ilmiy-tadqiqot jarayonida foydalanilishini nazorat qilishni tashkil etish;

ta'lim muassasalarining jihoz, asbob-uskuna, transport vositalari, mebel, xomashyo va materiallar, butlovchi qismlar hamda boshqa moddiy qiymatliklarga bo'lgan ehtiyojlarini o'rganishni tashkil etish;

ta'lim muassasalarida jihoz, asbob-uskuna va transport vositalari hamda xomashyodan ta'lim va ilmiy-tadqiqot jarayonida samarali foydalanish bo'yicha takliflar tayyorlash va markaz direktoriga kiritish;

ta'lim muassasalarining jihoz, asbob-uskuna, transport vositalari va boshqa moddiy qiymatliklar bilan ta'minlanishi bo'yicha turkumlangan ma'lumotlar bazasini yaratishni va yangilab borilishini tashkil qilish;

ta'lim muassasalari hisobidagi xizmat muddatini o'tab bo'lgan jihoz, asbob-uskuna va transport vositalarining texnik holatini o'rganish hamda ulardan o'quv jarayonida foydalanish to'g'risida tegishli xulosalar tayyorlanishini tashkil etish;

ta'lim muassasalarining xodimlari hamda rahbarlari ishtirokida jihoz, asbob-uskuna va transport vositalari hamda xomashyo va materiallardan o'quv jarayonida samarali foydalanish masalalari bo'yicha o'quv seminarlari, treninglar, yig'ilishlar va boshqa tadbirlarni tashkil etish;

ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo'yicha istiqboldagi dasturlarni ishlab chiqishda va xorijiy davlatlar investitsiya loyihalarini amalga oshirishda ishtirok etish;

boshqarma va bo'lim boshliqlari hamda xodimlarning shaxsiy mas'uliyatini oshirish bo'yicha ularni rag'batlantirish yoki intizomiy javobgarlikka tortish masalalarini ko'rib chiqish uchun markaz direktoriga taqdimot kiritish;

Vazirlik xodimlarining odob-axloq qoidalari talablariga rioya qilish, boshqarma va bo'lim boshliqlari hamda xodimlari tomonidan ijrosini ta'minlash;

Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 12-yanvardagi "Ijro intizomini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ijrosining bajarilishini ta'minlash;

boshqarma va bo'limlarga kelib tushgan jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqilishini ta'minlash, "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni bilan belgilangan muddatlarda va tartibda jismoniy va yuridik shaxslar vakillarini qabul qilish;

boshqarma va bo'limlar funksiyalari doirasida fuqarolardan tushgan ariza va shikoyatlarning o'z vaqtida ko'rib chiqilishini va javob xatlari tayyorlanishini nazorat qilish;

davlat sirini yoki qonunchilik bilan qo'riqlanadigan boshqa sirni tashkil etuvchi ma'lumotlarning himoya qilinishini ta'minlash.

17. Quyidagilar Markaz boshqarma (bo'lim) boshliqlarining asosiy funksional vazifalari hisoblanadi:

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari talablariga, shuningdek, boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga rioya etish;

boshqarma (bo'lim) faoliyatiga bevosita rahbarlik qilish, yuklangan vazifalar va funksiyalar bajarilishini tashkil etish;

boshqarma (bo'lim) vazifalari doirasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qaror va farmonlari, Vazirlar Mahkamasi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi topshiriqlarini o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlash, shuningdek ularga yuboriladigan ma'lumot, axborot va hisobotlarni sifatli tayyorlash;

Vazirlik Hay'ati qarorlari, vazir va markaz direktori buyruqlari hamda topshiriqlarini boshqarma (bo'lim)da o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlash;

boshqarma (bo'lim)da tegishli masalalar bo'yicha vazirlikning Hay'at qarorlari, Markaz buyruqlari va boshqa me'yoriy hujjatlarning loyihalarini tayyorlash;

boshqarma (bo'lim)ning yarim yillik va yillik ish rejalari ishlab chiqilishini ta'minlash, ularni ko'rib chiqish uchun Markaz direktori o'rinbosariga kiritish, ularda ko'rsatilgan vazifalar va tadbirlarni o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlash;

boshqarma (bo'lim)da tayyorlangan xat, ma'lumotnoma, hisobot, buyruq hamda boshqa hujjatlar loyihalarini ko'rib chiqish uchun Markaz direktori o'rinbosariga taqdim etish;

boshqarma (bo'lim)ning faoliyatiga tegishli bo'lgan normativ hujjatlar ijrosini o'z muddatida sifatli tashkil etish;

boshqarma (bo'lim)da kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yishda Markaz rahbarlariga takliflar taqdim etish, professional, o'z ishini bilishi, amaliy tajribaga, yuksak darajada ishlash xususiyatlariga va ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega ekanligi kafolatini ta'minlash, ularning kasb malakasini oshirish choralarini ko'rish;

boshqarma (bo'lim) xodimlari faoliyatiga baho berib borish, doimiy o'z vazifalarini to'liq bajarilishiga erishayotgan va tashabbus ko'rsatayotgan xodimlarni rag'batlantirish, tegishli darajadagi mukofotlarga tavsiya etish, aks hollarda intizomiy jazo choralarini qo'llash to'g'risida rahbariyatga taklif kiritish;

ta'lim muassasalari faoliyatini kompleks o'rganish bo'yicha tekshiruvlarda ishtirok etish, ma'lumotnoma va axborotlar tayyorlash, umumlashtirish va takliflar tayyorlash;

boshqarma (bo'lim) ish faoliyati bo'yicha seminarlar, treninglar, yig'ilishlar va boshqa tadbirlar o'tkazish;

ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo'yicha istiqboldagi dasturlarni ishlab chiqishda va xorijiy davlatlar investitsiya loyihalarini amalga oshirishda ishtirok etish;

yuqori tashkilotlardan keladigan topshiriqlar, joylardan tushadigan murojaatlar bilan ishlash hamda belgilangan tartibda takliflar tayyorlash, javob xatlarini yo'llash;

boshqarma (bo'lim) xodimlari tomonidan odob-axloq qoidalari talablariga rioya qilishini ta'minlash;

Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 12-yanvardagi "Ijro intizomini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 12-sonli qarori talablarini bajarilishini ta'minlash;

boshqarma (bo'lim) funksiyalari doirasida fuqarolardan tushgan ariza va shikoyatlarning o'z vaqtida ko'rib chiqilishini va javob xatlari tayyorlanishini nazorat qilish;

davlat sirini yoki qonunchilik bilan qo'riqlanadigan boshqa sirni tashkil etuvchi ma'lumotlarning himoya qilinishini ta'minlash.

6-bob. Oliy va professional ta'lim muassasalari moddiy-texnik bazasini mustahkamlash markazi rahbarlarining javobgarligi

18. Markaz direktori:

Markazga yuklangan vazifalar va funksiyalarning amalga oshirilishi;

ushbu Ustavning 14–bandida nazarda tutilgan Markazning javobgarlik sohalari bo'yicha;

ushbu Ustavning 15–bandida ko'rsatilgan o'z funksional vazifalarining sifatli bajarilishi uchun shaxsan javob beradi.

19. Markaz direktori o'rinbosari:

bo'limlarga yuklangan vazifalar va funksiyalarning amalga oshirilishi;

ushbu Ustavning 14–bandida nazarda tutilgan Markazning javobgarlik sohalari bo'yicha;

ushbu Ustavning 16–bandida ko'rsatilgan o'z funksional vazifalarining sifatli bajarilishi uchun shaxsan javob beradi.

20. Markazning boshqarma (bo'lim) boshliqlari:

boshqarma (bo'lim)ga yuklangan vazifalar va funksiyalarning amalga oshirilishi;

ushbu Ustavning 14–bandida nazarda tutilgan Markazning javobgarlik sohalari bo'yicha;

ushbu Ustavning 17–bandida ko'rsatilgan o'z funksional vazifalarining sifatli bajarilishi uchun shaxsan javob beradi.

7-bob. Oliy va professional ta'lim muassasalari moddiy-texnik bazasini mustahkamlash markazi faoliyatini tashkil etish

1-§. Oliy va professional ta'lim muassasalari moddiy-texnik bazasini mustahkamlash markazi rahbariyati

21. Markazga O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan Markaz direktori boshchilik qiladi.

22. Markaz direktori o'rinbosari Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bilan kelishilgan holda Markaz direktori tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi;

boshqarma (bo'lim) boshliqlari va xodimlar Markaz direktori tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi.

23. Markaz direktori bo'lmagan vaqtda uning vakolatlari vazifalar taqsimotiga binoan Markaz direktori o'rinbosari tomonidan bajariladi.

2-§. Oliy va professional ta'lim muassasalari moddiy-texnik bazasini mustahkamlash markazi Vazirlik tizimidagi tashkilotlar bilan o'zaro hamkorligi tartibi.

24. Markaz boshqama (bo'limlari)ning hududiy bo'linmalar va oliy ta'lim muassasalari bilan o'zaro hamkorligi boshqarma (bo'lim) boshliqlari tomonidan ta'minlanadi.

Markazning boshqama (bo'lim)lari hududiy bo'linmalar va oliy ta'lim muassasalari bilan o'z faoliyati yo'nalishlari bo'yicha hamkorlik qilish doirasida:

topshiriqlarni hududiy bo'linmalarga va oliy ta'lim muassasalariga yetkazadi hamda ularning bajarilishini nazorat qiladi;

hududiy bo'linmalarga va oliy ta'lim muassasalariga bo'limlarning bevosita faoliyati masalalari bo'yicha so'rovlar yuboradi;

hududiy bo'linmalar va oliy ta'lim muassasalari tomonidan taqdim etilgan takliflarni ko'rib chiqadi.

8-bob. Oliy va professional ta'lim muassasalari moddiy-texnik bazasini mustahkamlash markazi faoliyati samaradorligi va natijadorligini baholash mezonlari va ish indikatorlari

25. Markaz faoliyatining samaradorligi va natijadorligi belgilangan tartibda baholanadi.

26. Markaz faoliyati samaradorligi va natijadorligiga berilgan baholar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi tegishli xizmatlari va Vazirlar Mahkamasining mutasaddilik qiladigan kompleksi rahbari tomonidan tasdiqlanadigan

Vazirlik faoliyati samaradorligi va natijadorligini baholash mezonlari va ish indikatorlariga asoslanadi.

27. Markaz faoliyati samaradorligi va natijadorligini baholash yakunlari bo'yicha:

Markaz rahbarlari va xodimlarini rag'batlantirish (mukofotlash) yoki intizomiy javobgarlikka tortish;

Markaz faoliyatida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish va uning faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari ko'riladi.

Markaz faoliyati samaradorligi va natijadorligini baholash tartibi va metodikasi qonunchilik hujjatlariga ko'ra belgilanadi.

9-bob. Oliy va professional ta'lim muassasalari moddiy-texnik bazasini mustahkamlash markazini moliyalashtirish va moddiy-texnik ta'minlash, uning xodimlari mehnatiga haq to'lash va ularni moddiy rag'batlantirish

28. Markazni moddiy-texnik ta'minlash va xodimlar mehnatiga haq to'lash - O'zbekiston Respublikasi Respublika budjeti mablag'lari, shuningdek, qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobiga moliyalashtiriladi.

29. Markaz xodimlariga oylik ish haqi to'lash va ularni moddiy rag'batlantirish manbalari O'zbekiston Respublikasi Respublika budjeti, budjetdan tashqari topilgan mablag'lar, chet el grandlari va qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobiga amalga oshiriladi.

30. Markazning boshqaruv xodimlariga lavozim maoshining 300 foizigacha miqdorda oylik ustamalar, xizmat vazifalarini vijdonan va tashabbuskorlik bilan bajarganligi uchun mukofot puli budjetdan tashqari topilgan mablag'lar hisobidan to'lanadi.

31. Markazda ilmiy-pedagogik va mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchi ilmiy darajaga ega xodimlarga qo'shimcha haq to'lash O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 24-dekabrda 1030-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Ilm-fan va ta'lim sohasidagi davlat tashkilotlarida ilmiy, ilmiy-pedagogik va mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchi ilmiy darajaga ega xodimlarga qo'shimcha haq to'lash tartibi to'g'risida"gi Nizomda belgilangan talablar asosida amalga oshiriladi.

32. Markazning mol-mulki asosiy fondlar (jihoz, asbob-uskunalar, transport vositalari va shu kabilar)dan, aylanma mablag'lardan, shuningdek, mablag' bilan ta'minlashning barcha manbalari hisobiga sotib olingan moliyaviy resurslar va boshqa moddiy boyliklardan iborat bo'ladi. Ushbu mol-mulk qiymati Markazning mustaqil balansida aks ettiriladi.

33. Markazning mablag'lari mazkur Ustavda belgilangan faoliyat jarayonida jamlangan va O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa mablag'lar hisobidan ham shakllantiriladi.

34. Markazning budjetdan tashqari faoliyati davomida olgan sof foydasi, davlat to'lovidan keyin o'zining ixtiyorida qoladi va uni ishlatish amaldagi qonunchilik asosida mustaqil ravishda amalga oshiriladi.

35. Markazning o'ziga tegishli mol-mulkiga egalik qilish huquqi O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga mos holda amalga oshiriladi va himoya qilinadi.

10-bob. Oliy va professional ta'lim muassasalari moddiy-texnik bazasini mustahkamlash markazining hisobot berishi

36. Markaz direktori Markaz faoliyati to'g'risida Vazirlikka belgilangan tartibda hisobot beradi.

11-bob. Yakunlovchi qoida

37. Markazni qayta tashkil etish va tugatish qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.